SANOAT SOHASIDAGI ISLOHOTLAR VA ULARNI AMALGA OSHIRISH YO‘NALISHLARI

Kalimullina N.V.
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasi dotsenti v.b., PhD.
https://doi.org/10.5281/zenodo.21457185

Annotatsiya. *Ushbu maqolada sanoat sohasidagi islohotlarni zaruriyati, mazmuni, o‘rni, imkoniyatlari va ularni amalga oshirish yo‘nalishlari yoritilgan. Shuningdek, sanoat sohasidagi islohotlarni samarali amalga oshirish yuzasidan xulosa yoritilgan.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются необходимость, содержание, роль, возможности и направления промышленных реформ. Также приводятся выводы об эффективной реализации промышленных реформ.*

Abstract. *This article discusses the necessity, content, role, opportunities and directions of industrial reforms. It also provides a conclusion on the effective implementation of industrial reforms.*

Kalit so‘zlar. *Sanoat, islohot, yo‘nalish, tarmoq, texnologiya, eksport, mahsulot, investitsiya.*

Ключевые слова. *Промышленность, реформа, направление, сектор, технология, экспорт, продукт, инвестиции.*

Key words. *Industry, reform, direction, sector, technology, export, product, investment.*

Ma’lumki, sanoat har qanday mamlakat iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biri bo‘lib, yalpi ichki mahsulot hajmini oshirish, aholi bandligini ta’minlash, eksport salohiyatini kengaytirish va innovatsion rivojlanishni rag‘batlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish va raqobatbardoshligini oshirishda sanoat sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar muhim o‘rin tutadi. Bugungi global iqtisodiyot sharoitida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish va xalqaro bozorlarda munosib o‘rin egallash sanoat sohasining asosiy vazifalari bo‘lib hisoblanadi. Bu borada sanoat sohasidagi islohotlar iqtisodiyot tarmoqlarini diversifikatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish, investitsiyalarni jalb qilish, xususiy sektor ishtirokini kengaytirish va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni ko‘paytirishga qaratilgan. Bu islohotlar iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash bilan birgalikda aholi turmush darajasini yaxshilashga ham xizmat qiladi.

Sanoat sohasidagi islohotlar ustuvor yo‘nalish sifatida ularni amalga oshirish yuzasidan turli tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, tadqiqotlarga asosan, sanoat respublikamizning milliy mahsulot ishlab chiqarish sohasidagi asosiy tarmog‘i bo‘lib hisoblanadi. Unga asosan, sanoat o‘zining qo‘shimcha qiymat yaratishi, aholi ehtiėjini qondirishdagi o‘rni va yuqori darajaga ega bo‘lgan ishlab chiqarish “lokomotivi” bilan boshqa soha va tarmoqlardan o‘z afzalligi bilan farq qiladi [1]. Boshqa tadqiqotlarda ta’kidlanishicha, milliy iqtisodiyotda qishloq xo‘jaligi bilan birgalikda sanoat sohasining o‘rni islohotlar markazida bo‘lgan. Bu borada tarmoq barqarorligini ta’minlashda unga bog‘liq boshqa sohalarni o‘zaro muvofiq rivoji, ya’ni xom ashyo va resurs yetkazib beruvchilar, tayyor va yarim tayyor mahsulotni ishlash, realizatsiyasi bilan shug‘ullanuvchilar faoliyati hamda tegishli infratuzilma ob’ektlari ta’siri muhim ahamiyat kasb etadi [2]. Boshqa xil xorijiy tadqiqotlarga asosan, sanoat sohasining islohotgacha bo’lgan institutsional tuzilmasi shakllantirilgan. Ushbu

tuzilmadan kelib chiqadigan rag‘batlantirish tizimi sanoat ishlab chiqarishiga davlat aralashuvi ulushini oshirdi [3].

Yana boshqa tadqiqotlarga ko‘ra, iqtisodiy noaniqlik bilan bog‘liq yuqori xavflar, tashqi iqtisodiy vaziyatga bog‘liqlik, mahalliy tovarlar va xizmatlarning past raqobatbardoshligi sharoitida korxonalar faoliyati faqat sanoatni modernizatsiya qilish orqali hal qilinishi mumkin bo’lgan qator muammolarni belgilaydi. Ya’ni, unda raqobatbardosh sanoat ishlab chiqarish turini va yuqori texnologiyalarni ishlab chiqarishga va milliy takror ishlab chiqarishning tarmoq tizimini modernizatsiya qilishga qodir yuqori texnologiyali sanoat tarmoqlarini shakllantirish bilan belgilanadi [4]. Boshqa manbalarga asosan, sanoat korxonalari asosiy vositalarining faol qismini yangilash maqsadida amortizatsiyani investitsiya manbai sifatida ishlatish imkoniyati o’rganilgan. Xususan, unga ko‘ra, ushbu vosita asosiy vositalarni yangilash maqsadida investitsiyalar manbai sifatida baholangan [5].

Sanoat sohasidagi islohotlar ishlab chiqarish tizimini zamonaviylashtirish, korxonalarning moliyaviy barqarorligini ta’minlash va ularning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasidir. Mazkur jarayonda davlat tomonidan qulay investitsiya muhitini shakllantirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish muhim ahamiyatga ega. Islohotlar natijasida sanoat tarmoqlarida mehnat unumdorligi oshadi, ishlab chiqarish xarajatlari kamayadi va mahsulot sifati yaxshilanadi. Shu bilan birga, mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash imkoniyatlari kengayadi, import o‘rnini bosuvchi hamda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi ortadi.

So‘nggi yillarda sanoat sohasida qator muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu soha sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni tashkil etish, davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilish, xususiy sektor ulushini oshirish, xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish, kichik sanoat zonalari va erkin iqtisodiy zonalarni rivojlantirish, mahalliylashtirish dasturlarini kengaytirish hamda raqamli texnologiyalarni ishlab chiqarish jarayonlariga joriy etish kabi yo‘nalishlarni qamrab oladi. Mazkur chora-tadbirlar sanoatning barqaror rivojlanishi va xalqaro raqobatbardoshligini ta’minlashga xizmat qiladi. Modernizatsiya sanoat sohasidagi islohot asosi sifatida u orqali zamonaviy texnologiyalar va yuqori unumli uskunalarni joriy qilish ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkonini beradi. Eski ishlab chiqarish quvvatlarini yangilash, avtomatlashtirish va robotlashtirish orqali mahsulot sifati yaxshilanadi hamda resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish ta’minlanadi. Modernizatsiya jarayoni energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish, chiqindilarni kamaytirish va ekologik xavfsiz ishlab chiqarishni rivojlantirish bilan ham uzviy bog‘liq bo‘ladi.

Shuningdek, hozirgi kunda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sanoat sohasidagi ustuvor vazifasi bo‘lib hisoblanadi. Korxonalarda avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari, sun’iy intellekt elementlari, katta ma’lumotlar tahlili va raqamli monitoring tizimlarini qo‘llash mehnat unumdorligini sezilarli darajada oshiradi. Innovatsion texnologiyalar mahsulot tannarxini pasaytirish, ishlab chiqarish jarayonlarini tezlashtirish va bozor talablariga tez moslashish imkoniyatini yaratadi. Hamda sanoat sohasining rivojlanishi investitsiyalar bilan bevosita bog‘liq. Xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb qilish yangi korxonalar tashkil etish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va eksport hajmini oshirish imkonini beradi. Investitsiya muhitini yaxshilash maqsadida soliq imtiyozlari, bojxona yengilliklari, davlat kafolatlari va infratuzilma bilan ta’minlash choralari amalga oshiriladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xususiy sektor sanoat rivojlanishining asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib ham hisoblanadi. Shu bois, davlat mulkini xususiylashtirish, tadbirkorlik sub’ektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash va ma’muriy to‘siqlarni qisqartirish muhim ahamiyatga ega. Bu bo‘yicha xususiy korxonalarning ko‘payishi raqobat muhitini kuchaytiradi, mahsulot sifati oshishiga va yangi ish o‘rinlari yaratilishiga xizmat qiladi.

Sanoat islohotlarining muhim vazifasi bo‘lib eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish hisoblanadi. Buning uchun mahsulotlarni xalqaro standartlar asosida sertifikatlashtirish, tashqi bozorlarni o‘rganish va eksport logistikasini takomillashtirish talab etiladi. ksport hajmining o‘sishi mamlakatga valyuta tushumlarini ko‘paytirish, tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish va milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Sanoat sohasini rivojlantirish yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash bilan chambarchas bog‘liq. Oliy ta’lim muassasalari, kasb-hunar maktablari va ishlab chiqarish korxonalari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali mehnat bozori talablariga mos kadrlar tayyorlash mumkin. Bu borada mutaxassislar malakasini muntazam oshirish va ularni zamonaviy texnologiyalar bilan ishlashga o‘qitish sanoat rivojlanishining muhim sharti bo‘lib hisoblanadi.

Zamonaviy sanoat rivojlanishi atrof-muhit muhofazasi bilan uyg‘un bo‘lishi lozim. Shu sababli, ekologik xavfsiz texnologiyalarni joriy qilish, chiqindilarni qayta ishlash, havo va suv resurslarini muhofaza qilish hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shunga ko‘ra, “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini sanoat sohasiga keng tatbiq etish kelgusi avlodlar uchun ekologik barqarorlikni ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, sanoat sohasidagi islohotlar mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘sishi, raqobatbardoshligini oshirish va aholi farovonligini yuksaltirishning muhim omili bo‘lib hisoblanadi. Bu borada sanoatni modernizatsiya qilish, innovatsiyalarni joriy etish, raqamlashtirish, investitsiyalarni jalb qilish, xususiy sektor faolligini oshirish va yuqori malakali kadrlar tayyorlash mazkur islohotlarning asosiy yo‘nalishlarini tashkil etadi. Kelgusida ushbu islohotlarni izchil davom ettirish, mahalliy resurslardan samarali foydalanish, yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish hamda eksport salohiyatini yanada oshirish mamlakat sanoatining jahon bozoridagi o‘rnini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shunday ekan, sanoat sohasida innovatsion yondashuvlar, raqamli texnologiyalar va ekologik barqaror ishlab chiqarish tamoyillarini keng qo‘llash iqtisodiy taraqqiyotning muhim sharti bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Maxmudov N.M., Qambarov J.X. Sanoat tarmog‘ini yanada takomillashtirishning strategik vazifalari. // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy-elektron jurnali. №2, noyabr, 2011. - 1-9 b.
2. Ermatov I.I. Sanoat va qishloq xo‘jaligini uyg‘un rivojlantirish masalalari. // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy-elektron jurnali, №5, sentyabr-oktyabr, 2020. - 191 b.
3. Pyle D.J. (1997). Reform of Industrial Enterprises. In: China’s Economy. Palgrave Macmillan, London. https://doi.org/10.1007/978-1-349-25802-4_4
4. Belanova N.N., Kornilova A.D., Mantulenko V.V., Mantulenko A.V. The Main Modernization Directions of the Industrial Complex. // SHS Web of Conferences, 62, 03004 (2019). - pp. 1-5.
5. https://www.europeanproceedings.com/article/10.15405/epsbs.2021.04.02.197